

SCHEDULE

01.08.2022-15.10.2022

- Registration <https://internationalolympiad.uzedu.uz>

17.10.2022

- Test connection

18.10.2022

- Day of the Olympiad. 12:00 (UTC +5:00) will be launch.

18.10.2022

- At 13:30 (UTC +5:00) testing will end and participants will be able to review their scores.

18.10.2022

- At 14:40 (UTC +5:00) the overall results will be announced in the order of the points scored.
<https://internationalolympiad.uzedu.uz/>

Diplomas and certificates of the winners of the Olympiad will be sent to email addresses.

Xalqaro o'zbek tili va adabiyoti fan olimpiadasini tashkil etish
va o'tkazish tartibi to'g'risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom umumiy o'rta ta'lif muassasalari o'quvchilari o'rtasida o'tkaziladigan xalqaro o'zbek tili va adabiyoti onlayn fan olimpiadasini (keyingi o'rinnarda - Xalqaro olimpiada) tashkil etish va o'tkazish tartibini belgilaydi.

2. Xalqaro olimpiadada xorijiy davlat fuqarosi (millatidan qat'i nazar) bo'lgan 15-17 yoshli umumiy o'rta ta'lif muassasalari o'quvchilari ishtirok etadi.

3. Xalqaro olimpiada Xalq ta'limi vazirligining Fan olimpiadalari bo'yicha iqtidorli o'quvchilar bilan ishslash departamenti tomonidan elektron tizim orqali onlayn shaklda o'tkaziladi.

2-bob. Asosiy tushunchalar

4. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalilanadi:

elektron tizim - Xalq ta'limi vazirligining Fan olimpiadalari bo'yicha iqtidorli o'quvchilar bilan ishslash departamenti tomonidan yuritiladigan, onlayn olimpiadalar tashkil etish bo'yicha veb-sayt;

test topshiriqlari - o'zbek tili va adabiyoti fani doirasidagi mavzular yuzasidan o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar majmuasi.

3-bob. Xalqaro olimpiadaning maqsad va vazifalari

5.Xalqaro olimpiadaning maqsadi xorijiy davlatlar bilan fan va ta’lim sohasida hamkorlikni kuchaytirish orqali chet ellik yoshlaming o‘zbek tili va adabiyotiga bo‘lgan qiziqishini, o‘zbek tilining xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirishdan iborat.

6.Quyidagilar xalqaro olimpiadaning asosiy vazifalari hisoblanadi:
xorijiy davlatlardagi o‘zbek tili va adabiyotini o‘rganayotgan yoshlarni qo‘llab-quvvatlash,
eng iqtidorlilarini aniqlash, qobiliyatlarini yanada rivojlantirish;
xorijiy davlatlarda o‘zbek tili va adabiyoti, madaniyatini keng targ‘ib qilish;
xorijdagi o‘zbek tilini o‘rganishga intilayotgan o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash va
rag‘batlantirish.

4-bob. Olimpiadani o‘tkazish bosqichlari va muddati

7.Xalqaro olimpiada ushbu Nizomga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining Fan olimpiadalari bo‘yicha iqtidorli o‘quvchilar bilan ishslash departamenti tomonidan tashkil etiladi.

8.Xalqaro olimpiada o‘zbek tili va adabiyoti fani bo‘yicha bitta bosqichda test sinovlari shaklida o‘tkaziladi. Test sinovlarini o‘tkazish oktabr oyining boshida ishtirokchilar ogohlantiriladi, taxminiy savollar bilan tanishtirishni nazarda tutuvchi qoidalar elektron tizimda e’lon qilinadi.

9.Xalqaro olimpiada 2022-yil 18-oktabr kuni - O‘zbek tili bayrami arafasida o‘tkaziladi.

10.Xalqaro olimpiadada har bir ishtirokchi individual tarzda onlayn elektron tizim orqali ro‘yxatdan o‘tadi va ishtirok etadi.

Bunda, Xalqaro olimpiadada ishtirok etish istagini bildirgan nomzod tomonidan fuqaroligini, shaxsini va yoshini tasdiqlovchi hujjatning foto nusxasini elektron tizimga yuklash talab qilinishi mumkin.

11.O‘zbekiston Respublikasi hududida yashayotgan va ta’lim olayotgan xorijiy fuqarolar olimpiadada ishtirok etishi mumkin.

12.Xalqaro olimpiada ishtirokchilarini ro‘yxatga olish 2022-yil 1-avgustdan 15-oktabrga qadar amalga oshiriladi.

5-bob. Xalqaro olimpiadani o‘tkazish tartibi

13.Xalqaro olimpiadani tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha Tashkiliy qo‘mita va 5-7 nafar malakali mutaxassislardan iborat Hakamlar hay’ati tuziladi.

14.Xalqaro olimpiada ishtirokchilari elektron tizim orqali o‘zbek tilida onlayn ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

15.Xalqaro olimpiada 1 ta turda 100 ballik baholash mezoni asosida o‘tkaziladi.
Xalqaro olimpiada onlayn shaklda o‘tkaziladi hamda barcha ishtirokchilarga bir xil variantdagagi 30 ta test topshiriqlari beriladi.

Test sinovlari barcha ishtirokchilar uchun bir vaqtda o‘tkaziladi va 90 daqiqa ajratiladi.

Test topshiriqlari 3 xil murakkablikdagi test savollaridan iborat bo‘ladi.

16.Xalqaro olimpiadaga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar vazirlikning markazlashgan xarajatlar smetasida olimpiada tadbirlariga ajratilgan mablag‘lar

hisobidan amalga oshiriladi.

17.Xalqaro olimpiada yakunida g‘oliblar aniqlanadi va g‘oliblarga onlayn sertifikatlar topshiriladi.

Xalqaro olimpiada g‘oliblariga I darajali sertifikat (80-100 ball),

II darajali sertifikat (60-79 ball), III darajali sertifikat (45-59 ball) topshiriladi.

18.Tashkiliy qo‘mita xalqaro olimpiadaning topshiriqlari sifatli tayyorlanishini hamda maxfiyligini ta’minlaydi, baholash mezonlarini va yakuniy natijalarini chiqarish tartibini tasdiqlaydi.

19.Xalqaro Olimpiada topshiriqlari tasdiqlangan baholash mezonlari hamdaadolat tamoyillari asosida elektron tizimda baholanadi.

20.Xalqaro olimpiada jarayonida test sinovlari uchun ajratilgan muddat yakunlangach to‘g‘ri javoblari belgilanmagan savollar uchun 0 ball qo‘yiladi va umumiy natija chiqariladi.

6-bob. Hakamlar hay’ati

21.Xalqaro olimpiadani o‘tkazish bo‘yicha hakamlar hay’ati 5-7 nafargacha o‘zbek tili va adabiyoti fani bo‘yicha malakali professor-o‘qituvchilar va tajribali mutaxassislardan iborat tarkibda tuziladi va Tashkiliy qo‘mita tomonidan tasdiqlanadi.

22.Hakamlar hay’ati o‘zining a’zolari orasidan hakamlar hay’ati raisini saylaydi.

23.Hakamlar hay’ati quyidagi vazifalarni bajaradi:

test topshiriqlarini ishlab chiqadi;

olimpiada natijalariningadolatli, shaffof baholanishini ta’minlaydi;

test topshiriqlari bo‘yicha e’tirozlar va murojaatlarni ko‘rib chiqadi.

7-bob. Xalqaro olimpiada g‘oliblarini taqdirlash

24.Xalqaro olimpiada g‘oliblari va sovrindorlari tashkiliy qo‘mita tomonidan sertifikatlar bilan taqdirlanadi.

8-bob. Yakuniy qoida

25.Mazkur Nizomda belgilangan masalalar bo‘yicha nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda Tashkiliy qo‘mita tomonidan hal qilinadi.

26.Ushbu Nizom talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.